

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN ARXITEKTURA TARIXI FANIDAN MALAKA TEST SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Arxitektura tarixi fanidan talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Arxitektura tarixi

1. O‘rta Osiyo arxitektura yodgorliklarini ta‘mirlash va saqlash haqida umumiy ma‘lumotlar;
2. Arxitektura uslublari va tarixi bo‘yicha ma‘lumotlar;
3. Ibtidoiy davr me‘morchiligi va tarixi;
4. Zamonaviy jahon arxitekturasini;
5. O‘rta Osiyo arxitekturasini.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	O'rta Osiyo arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va saqlash haqida umumiy ma'lumotlar	O'rta Osiyodagi mavjud arxitektura va arxeologik yodgorliklarini ta'mirlash, ular bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish, O'zbekiston madaniy meros obyektlarini (arxitektura, arxeologik, diqqatga sazovor joylar va monumental) yodgorliklar haqida tushunchalar va ta'mirshunoslik ustalar ishlari bo'yicha ma'lumotlar haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'ladi.	25 %	10 ta
2	Arxitektura uslublari va tarixi bo'yicha ma'lumotlar	O'rta Osiyo va jahon arxitektura yodgorliklarida qo'llanilgan uslublarni bir-biridan ajrata olish, uslublarda ranglarni qo'llay olish va Arxitektura "still"larni ifodalay olish bo'yicha bilimlarga ega bo'ladi.	22,5 %	9 ta
3	Ibtidoiy davr me'morchiligi va tarixi	O'rta Osiyo va jahon arxitekturasining shakllanishida ibtidoiy jamoa davri me'morchiligining shakllanishi (Ibtidoiy jamoa davridagi tosh ko'rinishdagi inshootlarning nomlanishi), Qadimgi Mesopotamiya me'morchiligida keng tarqalgan ko'p qavatli diniy binolar bo'yicha bilimlarga ega bo'ladi.	25 %	10 ta
4	Zamonaviy jahon arxitekturasi	Jahon arxitekturasida qurilish materiallarining rivojlanishi, Le Korbusening arxitektura bo'yicha qarashlari, Ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropa shaharlarini qayta qurish ishlari bo'yicha xalqaro shartnomalar haqida bilimlarga ega bo'ladi.	15 %	6 ta
5	O'rta Osiyo arxitekturasi	IX-X asrlarda tarixiy markazlari (Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva)da qurilgan jamoat binolari, O'rta Osiyo jamoat binolari bo'yicha bilimlarga ega bo'ladi.	12,5 %	5 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	30 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	50 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iy man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Mamatmusaev.T. “O‘zbekiston tarixiy shaharlarning tipologik rivojlanishi”, II-bob. Darslik. Toshkent 2022 y.
2. X.Sh. Po‘latov, P.Zohidov, D.Nosirova, M.Miryusupova, Sh.Nurmuhamedova “Arxitekturaviy kompozitsiya asoslari”, Darslik. Toshkent 2005 y.
3. Qodirova T.F. San’at, arxitektura va shaharsozlik tarixi. Darslik. T.: 2014.
4. Аскарлов Ш.Д. Генезис архитектуры Узбекистана. Т.: 2014.
5. Arxitekturaning umumiy tarixi. M.: 1-2, 8-jild. 1980 yil.
6. San’atning umumiy tarixi / tahrir. A.D.Chegodaeva / In 6 tomax. T.1 M., "San’at" 1956. www.bibliotekar.ru